FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2023 - yil 11 - may 171-11-169-Q/23 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahar hududida joylashgan korxona, tashkilot, idora va ta’lim muassasalarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish va ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini hamda Farg‘ona shahar hududidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini tekshirish to‘g‘risida

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy hisobini yuritish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 119–son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa va Ichki ishlar vazirlari hamda Milliy xavfsizlik xizmati (DXX) raisining 2004-yil 7-iyuldagi 074/056/0185-son “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervi va zaxirasidagi serjantlar va oddiy askarlar tarkibining harbiy hisobini yuritish bo‘yicha qo‘llanmani kuchga kiritish to‘g‘risida”gi qo‘shma buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, shunindek, Farg‘ona shahar Mudofaa ishlari bo‘limining 2023-yil 25-apreldagi 646-son xatini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg‘ona shahar Mudofaa ishlari bo‘limining 2023-yil 25-apreldagi 645-son xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023/2024-o‘quv yilida Farg‘ona shahar hududidagi rezerv va zaxiradagi harbiy xizmatga majburlarni umumiy harbiy va maxsus hisobga olish, tashkil etish va yuritish ishlari Farg‘ona shahar Mudofaa ishlari bo‘limi (U.Mirinoyatov)

tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Farg‘ona shahar hududida joylashgan, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, tashkilot, idora va muassasalarda harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish, ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish hamda olib borishga doir ishlar holatini va safarbarlik davrida belgilangan avtotransportlar qo‘shimcha ehtiyot qismlari, sozlash ish qurollari va yoqilg‘i quyish anjomlari bilan ta’minlanganligini 2023/2024-o‘quv yili davomida tekshirish rejasi 1-ilovaga muvofiq;

Farg‘ona shahar hududidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini o‘rganish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Farg‘ona shahar Mudofaa ishlari bo‘limi (U.Mirinoyatov):

rejaga muvofiq, shahar hududida joylashgan, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, tashkilot va muassasalarda harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish, ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini hamda safarbarlik davrida belgilangan avtotransportlarning qo‘shimcha ehtiyot qismlari, sozlash ish qurollari va yoqilg‘i quyish anjomlari bilan ta’minlanganligini va Farg‘ona shahar hududidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2023/2024-o‘quv yili davomida o‘rganish;

mahalla fuqarolar yig‘inlarida harbiy hisobga kiritish va hisobdan chiqarish, umumiy harbiy hisobga taalluqli bo‘lgan hujjatlarni to‘la yuritish hamda nazoratini mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikda olib borish;

shahar hududida joylashgan korxona, tashkilot, idora va muassasalarda harbiy hisob hamda bron qilish ishlariga mas’ul bo‘lgan xodimlar bilan mashg‘ulotlar, o‘zaro tajriba almashinuv yig‘inlarini tashkillashtirish va o‘tkazish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarni belgilash vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Farg‘ona shahar hokimining 2022-yil 21-may kungi 209-11-169-Q/22-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror amaldagi qonun va me’yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda tayyorlanganligiga, qonuniyligiga hamda to‘g‘riligiga Farg‘ona shahar Mudofaa

ishlari bo‘limi boshlig‘i v.b U.Mirinoyatov shaxsan javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Farg‘ona shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Mo‘minov hamda Farg‘ona shahar Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i v.b U.Mirinoyatovlar zimmasiga yuklansin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**

Farg‘ona shahar hokimining
2023 yil 11 maydagi
171-11-169-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona shahar hududida joylashgan korxona, tashkilot, idora va ta’lim muassasalarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish va ushbu toifani iqtisodiyot tarmoqlariga bron qilish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha 2023/2024-o‘quv yili davomida tekshirish REJASI

T/r	Korxona, tashkilot, idora va ta’lim muassasasining nomi va manzil	Tekshiruv o‘tkazish sanasi
1	«Farg‘ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ	26.05.2023 y.
2	«Farg‘ona issiqlik elektr markazi» AJ (TES)	02.06.2023 y.
3	“FARG‘ONAAZOT” AJ	09.06.2023 y.
4	“FARG‘ONAYoG‘MOY” AJ	16.06.2023 y.
5	“POSCO International Textile” MChJ	23.06.2023 y.
6	“Turonbank” ATB Farg‘ona bank xizmatlari markazi	28.06.2023 y.
7	“Asakabank” aksiyadorlik jamiyati Farg‘ona filiali	07.07.2023 y.
8	“Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ	14.07.2023 y.
9	“FARG‘ONADONMAXSULOTLARI” AJ	21.07.2023 y.
10	Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	28.07.2023 y.
11	“UZ-HANWOO ENGINEERING” MChJ shaklidagi O‘zbekiston-Koreya qo‘shma korxonasi	04.08.2023 y.
12	Farg‘ona shahar hokimligi “OBODONLAShTIRISh BOShKARMASI”	11.08.2023 y.
13	“AVTOOYNA” MChJ	18.08.2023 y.
14	Farg‘ona politexnika instituti	25.08.2023 y.
15	Farg‘ona magistral gaz quvurlari boshqarmasi	08.09.2023 y.
16	Qishloq-qurilish bank	15.09.2023 y.
17	“HUDUDGAZ FARG‘ONA” gaz ta’minoti filiali	22.09.2023 y.

18	Ipoteka bank	29.09.2023 y.
19	”UZSUNGWOO” MChJ qo‘shma korxonasi	06.10.2023 y.
20	“BS TEKSTIL FARGONA” MChJ	13.10.2023 y.
21	“FARG‘ONA KIMYo ZAVODI” MChJ	20.10.2023 y.
22	Farg‘ona davlat universiteti	27.10.2023 y.
23	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali	03.11.2023 y.
24	Farg‘ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi	09.11.2023 y.
25	Ipak yo‘li bank	17.11.2023 y.
26	“O‘ZBEKTELEKOM” AK Farg‘ona viloyati filiali	24.11.2023 y.
27	Farg‘ona viloyati “Bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi”	01.12.2023 y.
28	Farg‘ona viloyati “Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi”	06.12.2023 y.
29	Farg‘ona viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi maxsus va tez tibbiy yordam avtohujaligi	15.12.2023 y.
30	Farg‘ona shahar Halq ta’limi bo‘limi	22.12.2023 y.
31	AKB “Tenge Bank” Farg‘ona Bank xizmatlari markazi	05.01.2024 y.
32	“FERGANA GLOBAL TEXTILE” MChJ FILIALI TEKSTIL KOMPLEKSI	12.01.2024 y.
33	Milliy bank	19.01.2024 y.
34	Aziya - alyans bank	26.01.2024 y.
35	Respublika Shoshilinch Tibbiy yordam ilmiy markazi Farg‘ona filiali	02.02.2024 y.
36	Farg‘ona viloyat Teleradiokompaniyasi	09.02.2024 y.
37	“SUVOQOVA” Davlat boshqarmasi	16.02.2024 y.
38	O‘R Markaziy banki Farg‘ona viloyat bosh boshqarmasi	23.02.2024 y.

Farg‘ona shahar hokimining
2023 yil 11 maydagi
171-11-169-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona shahri hududidagi o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy hisobini yuritish ishlarini tashkillashtirish va olib borishga doir ishlar holatini 2023/2024-o‘quv yili davomida o‘rganish rejasi

T/r	O‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomlanishi	Tekshiruv o‘tkazish sanasi
1	Iftixor MFY	20.06.2023-yil
2	O‘rmonchilar MFY	25.07.2023-yil
3	Sharof Rashidov MFY	22.08.2023-yil
4	Tinchlik MFY	19.09.2023-yil
5	Ahmad al-Farg‘oniy MFY	24.10.2023-yil
6	Soy bo‘yi MFY	21.11.2023-yil
7	Ibrat MFY	26.12.2023-yil
8	Yoshlar MFY	23.01.2024-yil
9	Farg‘ona MFY	20.02.2024-yil
10	Shodiyona MFY	12.03.2024-yil